QASHQADARYO VILOYATI MIRISHKOR TUMANI HOKIMINING QARORI

181000 O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani Yangi Mirishkor shaharchasi, tel: 652-18-58, 652-10-34, faks-652-14-65, 652-19-48

2024 - yil 11 - mart 84-4-63-Q/24 Mirishkor tuman hokimligi

Yo‘l transport hodisalarini oldini olish hamda tirbandliklarni bartaraf etish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y, 15-son, 197-modda), O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuni 6-moddasiga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda) asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Mirishkor tuman ichki ishlar bo‘limining 2023-yil 30-yanvardagi 46/340-sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda yo‘l transport hodisalarini oldini olish hamda tirbandliklarni bartaraf etish maqsadida ilovaga muvofiq tegishli yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Tuman “Obodonlashtirish boshqarmasi” (I.Pinnayev)ga ilovaga muvofiq ichki yo‘llarga yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan ogohlantiruvchi, imtiyoz, taqiqlovchi, axborot-ishora belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlarining talablarini bilishlari, ularga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

5. Tuman IIB YXHG (Y.Hamroyev) tomonidan yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda transport vositalarining harakati kunlik nazorat qilib borilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Eshmurodov zimmasiga yuklatilsin.

7. Tuman hokimining 26.02.2024-yildagi 67-4-63-Q/24-son hamda 01.03.2024-yildagi 75-4-63-Q/24-son qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **F.G`ulomov**

Mirishkor tuman hokimining
2024-yil 11-martdagi
84-4-63-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Mirishkor tumani ko‘chalarga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari

DISLOKATSIYASI

T/R	Yo‘l belgilari nomi	Joylashtirish joyi	Soni (dona)
Миришкор тумани			
1	Mirishkor tumani 4P92-avtomabil yo‘lining 47-48-kmlar oralig‘ida joylashgan “Shukrona” to‘yxonasi ro‘parasida **3.28-sonli “To‘xtab turish taqiqlangan”** yo‘l belgisi o‘rnatish.	Jeynov shaharchasi	2 dona
2	Mirishkor tumani 4P92-avtomabil yo‘lining 49-km. da joylashgan “Jeynov buyum” bozori ro‘parasida 2-dona **3.27-sonli “To‘xtash taqiqlangan”** yo‘l belgisi o‘rnatish.	Jeynov shaharchasi	2 dona
3	Mirishkor tumani 4P92-avtomabil yo‘lining 49-50-kmlar oralig‘ida joylashgan Jeynov-Pomiq-Muborak taksilari to‘xtash joyi ro‘parasida **3.27-sonli “To‘xtash taqiqlangan”** yo‘l belgisi o‘rnatish.	Jeynov shaharchasi	2 dona
4	Mirishkor tumani 4K346-avtomabil yo‘lining 0-1-kmlar oralig‘ida joylashgan “Xoliqberdi” to‘yxonasi ro‘parasida **3.28-sonli “To‘xtab turish taqiqlangan”** yo‘l belgisi o‘rnatish.	Jeynov shaharchasi	2 dona
5	Mirishkor tumani 4K346-avtomabil yo‘lining 0-kmda o‘ng va chap tomonida ro‘parasida **3.27-sonli “To‘xtash taqiqlangan”** yo‘l belgisi o‘rnatish.	Yangi Mirishkor MFY	2 dona
6	Mirishkor tumani markazi Tinchlik ko‘chasi tuman Prakuratura ro‘parasida **3.27-sonli “To‘xtash taqiqlangan”** yo‘l belgisi o‘rnatish.	Yangi Mirishkor MFY	2 dona
7	Mirishkor tumani markazi Tinchlik ko‘chasi Qosimov Xurshid savdo do‘koni, Nazar ota choyxonasi ro‘parasida **3.27-sonli “To‘xtash taqiqlangan”** yo‘l belgisi o‘rnatish.	Yangi Mirishkor MFY	2 dona
8	Mirishkor tumani markazi 4K325b avtomabil yo‘lini Mirishkor taksi stayankasi ro‘parasida **3.27-sonli “To‘xtash taqiqlangan”** yo‘l belgisi o‘rnatish.	Yangi Mirishkor MFY	2 dona